



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

# GUMANITAR FANLAR

## ONA TILI, BIRINCHI TIL VA ETNIK TIL

Yorqinjon Odilov<sup>1</sup>

<sup>1</sup>O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Ona tili, millat, birinchi til, ikki tillilik, etnik til, til muhiti, ijtimoiylashish, asosiy til.	Ushbu maqolada muallif shaxsning shakllanishida muhim rol o‘ynaydigan ona tili, birinchi til va etnik til to‘g‘risidagi turli qarashlarni bayon etib, ularning o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni yoritadi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Родной язык, национальность, первый язык, двуязычие, этнический язык, языковая среда, социализация, основной язык.	В данной статье автор приводит различные мнения о родном, первом и этническом языках, играющих важную роль в формировании личности человека, и приводит сходства и различия последних.
KEY WORDS	ABSTRACT
Mother tongue, nationality, first language, bilingualism, ethnic language, linguistic environment, socialization, primary language.	In this article, the author gives different opinions about the mother tongue, first language and ethnic language, which are important in the formation of human personality, and talks about the similarities and differences between them.

**Kirish.** Mutaxassislarning taxminiy hisob-kitoblariga ko‘ra, bugungi kunda kurrayi zaminda yetti mingga yaqin til bor. Tabiiyki, bu tillarning har biri muayyan qavm uchun e‘zozli ona tilidir. Demak, ularning har biri o‘zining sobit sohibi, poydor posboniga ega. Zotan, o‘zini, o‘zligini qo‘rishni uddalay olmagan qavmning tili o‘zi bilan birga tarix qa‘rida yo‘qlikka mahkum bo‘lganki, bu tillar endilikda “o‘lik tillar” nomini olgan. O‘sha uch mingdan ortiq tilning biri bo‘lmish o‘zbek tili o‘zbekning ehtiromli va e‘tiborli ona tili, mustaqillik sharofati bilan bugun o‘ttiz yetti millionli O‘zbekistonning o‘ktam va umriboqiy davlat tili sifatida rivoj-u ravnaq yo‘lini tutgani aniq. Har qanday shaxsning, irq-u e‘tiqodi, zamin-

u zamonidan qat‘i nazar, milliy-ruhiy mag‘zini ona tili tayin etadi [1].

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqot davomida leksikografik tahlil, qiyoslash, tavsiflash usullaridan foydalanildi, “ona tili”, birinchi til”, “etnik til” atamalarining lingvistik lug‘atlardagi talqinlari ensiklopedik manbalardagi izohlar bilan qiyoslandi. Zikr etilgan lingvistik tushunchalarning mohiyati bu tarz qiyoslovlar asosida yoritildi, ularni tushuntirishda tavsiflash usulidan faol foydalanildi.

**Natijalar.** Ilmiy adabiyotlarda ona tiliga ko‘plab tavsiflar berilgan va ular asosan bir-birini to‘ldiradi. Masalan, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”ga ko‘ra: ona tili – har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili. Ona tili lug‘at tarkibi,



asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'alarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Bu til taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq [2; 541].

Lingvistik lug'atlarda ona tili tushunchasining mohiyati yanada aniqlashtiriladi. Masalan, "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da: ona tili – bolaning go'daklikdan kattalarga taqlid qilib o'rgangan tili, deb izohlanadi [3; 75]. N.Mahkamov va I.Ermatovlar: "bolaning go'daklikdan kattalarga taqlid qilib o'rgangan tili; har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili – ona tilidir", deydi [4; 81]. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da esa bolaning go'daklikdan kattalarga taqlid qilib o'rgangan tili, tug'ma til (odatda, gapiruvchi shaxs mansub bo'lgan xalq tili – ona tili deyiladi [5; 486].

Diqqat qilinsa, yuqoridagi tavsiflarda ona tilining ilk bor egallanadigan, eshitib o'zlashtiriladigan til bo'lishi qat'iy ta'kidlanlangan va aslida ham ona tilining asosiy jihati shu. Shu bilan birga, keyingi ikki ta'rifda etnik til ham ekanligidek mulohaza mavjud. Bizningcha, bir holatda ona tili va etnik til tushunchalari teng kelsa, ikkinchi holatda bu tushunchalar barobarlasha olmaydi. Ona tili nafaqat onaning, balki kamida otaning, buvi-yu boboning, qisqasi, oilaning umumiy tili bo'lganda ona tili va etnik til bir xil bo'ladi. Bunday lisoniy muhitda tug'ilgan bola aynan ona tili (etnik til ham) yetovida o'zi kabilar o'rtasida qoidalashgan ijtimoiy-ahloqiy me'yorlar bilan tanishadi va ularni o'zlashtiradi, shaxs sifatida ijtimoiylashadi.

Til vaziyatiga bog'liq ravishda shaxsning ona tili uning etnik tili bilan bir bo'lmasligi mumkin. Dunyoda etnik til bilan ona tili nomuvofiq bo'lgan shaxslar, jamiyatlar kuzatiladi. Masalan, O'zbekistonda yashovchi arman, tatar, ukrain, belorus, grek millati vakillarining aksariyati o'z

etnik tilini ona tili sifatida bilmaydi, balki rus tilini ona tili deb tushunadi. Markazda yashaydigan ayrim o'zbek oilalari farzandlarining ilk bor kattalarga taqlid qilib o'zlashtirgan tili rus tili bo'lganlari ham mavjud. Bir etnik kelib chiqishga mansub oila a'zolarining bobo-buvi, ota-ona va bolalarning ona tillari farqli bo'lganligi haqida sotsiolingvistik tadqiqotlarda qayd qilingan.

Sotsiolingvistika bilan jiddiy shug'ullangan V.Alpatov ona tili yuzasidan fikr yuritib, "родной язык" hamda "материнский язык" tushunchalarini farqlaydi. Olim "родной язык" deganda, bola ilk bor kattalardan o'zlashtirgan tilni nazarda tutadi va bu o'zbek tilida ham "ona tili" atamasi bilan yuritiladi. Ammo "материнский язык" deganda, ko'proq etnik omil birinchi o'ringa chiqadi hamda "bolaning onasining tili, onasi mansub elning tili" degan tushuncha ta'kid oladi. Bizningcha, keyingi atama "ona tili" tushunchasining mohiyatini anglashni murakkablashtiradi, chunki bola atrofdagilardan eshitib o'zlashtiradigan birinchi tili aynan onasining emas, balki otasi, bobo-buvisi so'zlashadigan til yoki umuman boshqa til ham bo'lishi mumkin.

O.Axmanovning lug'atida ingliz tilida "ona tili" tushunchasini "mother tongue" hamda "native language" atamalari bilan ifodalanishi qayd qilinadi [6; 532]. Biz ingliz tili izohli lug'atlarini ko'zdan kechirganimizda quyidagilar ma'lum bo'ldi: "Oxford learners dictionaries" da "mother tongue" atamasi "bolalikda ilk bor gapirishni o'rgangan til" [7] tarzida izohlangan va unga "birinchi til" atamasining ma'nodoshligi aytilgan. Birinchi til atamasi esa "bolalikda siz ilk bor o'zlashtirilgan til; siz eng yaxshi gapiradigan til" [8] deb izohlanlangan. "Collins dictionary" da "native language" bu – "kishi tug'ilgan yoki tug'ilib o'sgan mamlakat tili" [9] deyilsa, "Cambridge dictionary" da "shaxs egallagan



birinchi til” [10] tarzida izohlanadi. Demak, ingliz tilida “mother tongue” hamda “native language” atamaları o‘zaro ma’nodosh. O‘zbekistonlik ingliz tili mutaxassislari “native language”ni mahalliy til deyдилar.

Ayrim adabiyotlarda ona tilining ma’nisini tushuntirish hamda o‘xshash tushunchalardan farqini belgilashda bolaning tilni ilk bor o‘zlashtirganligidan emas, ayni damda qaysi tildan asosiy muloqot vositasi sifatida foydalanilayotganligidan kelib chiqiladi. Masalan, “Sotsiolingvistika” darsligida “agar birtillilik muhitida o‘sgan bola ikkitillilik muhitida yashay boshlasa, ona tilini amalda qo‘llamay qo‘ysa va yangi tilni muntazam qo‘llashga o‘tib ketsa, endi shu keyin egallangan til bolaning ona tili hisoblanadi” [11; 12] deyiladi. Ko‘rinadiki, bu yerda ona tili erta bolalikda o‘zlashtirilgan til bo‘lish bilan birga, keyin ham asosiy axborot olish va yetkazish vositasi bo‘lib qolishi kerak, deb tushunilmoqda.

O‘zbek tili nuqtayi nazaridan ona tilini “bolaning dastlab oilada o‘z yaqinlaridan, keyinchalik atrofida gilarining jonli nutqidan eshitib o‘zlashtirgan tili” tarzida ta’riflash ma’qul. Ona tilining mohiyatini belgilashda etnik belgining doimiy asosiy omil bo‘lolmasligi to‘g‘ri. Birinchi til atamasi umuman olganda ona tili tushunchasini anglata oladi va bunday atovda uning “ilk o‘zlashtirilganligi”, “asosiy til ekanligi” tushunchalari ta’kid oladi. Birinchi til atamasidan individual ikkitillilik yoki ko‘ptillilik haqida fikr yuritilganda yoxud ikkinchi til to‘g‘risida gap ketgan o‘rinlarda qiyosan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Ma’lumki, nemis tilshunosi Y.Vaysgerberning til falsafasida ona tili omili alohida o‘rin tutadi. Olim ona tilini insonning ruhiyati hamda shaxsiyatini shakllantiradigan hodisa deb biladi. U ona tili haqida mulohaza qilarkan, shaxsning ona

tili shu shaxs mansub lisoniy hamjamiyatning tilidir, deydi. Shundan kelib chiqib, hech kimning shaxsiy tili yo‘q va odam ona tilisiz mavjud bo‘lmaydi. Tilning inson hayoti va faoliyatidagi o‘rnini bilish uchun ona tilining lisoniy hamjamiyatdagi rolini, til egalariga beradigan imkoniyatlarini aniq anglab olish zarur, deb yozadi [12; 80].

Y.Vaysgerber o‘z tajribalari orqali ona tilini yuzda to‘qson to‘qqiz foiz odam muloqot vositasi deb tushunishi va bunda ularning nohaqligini aytadi [12; 85]. Ona tili shaxsning keyin ham asosiy tili bo‘lib qoladi. Kishilar til umumiyliги asosida muayyan jamoada birlashib, jamiyatni tashkil qilar ekan, shu jamoaning asosiy tili bo‘ladi va bunday til vazifasini asosan ona tili bajaradi. Ona tili alohida shaxslar nutqida namoyon bo‘lsa ham, yaxlit tizim sifatida jamiyatning lisoniy xulqida yuzaga chiqadi. Qadimdan til atamasi ostida tushuntiriladigan bu kabi jihatlar to‘laligicha ona tiliga tegishli. Shu jihatdan Y.Vaysgerberning quyidagi fikri ham muhim: muayyan hamjamiyatning tili alohida shaxsning lisoniy organizmida yuzaga chiqsa va alohida shaxsning tafakkurida tursa ham, ammo u individual hodisa emas, chunki til (ona tili – Y.O.) yakka shaxsning fikriy va nutqiy faoliyatidan to‘liq anglashilmaydi; axir ona tili umr bo‘yi egallanadi [12; 82].

Yuqorida aytilganlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, ona tili dastlab alohida shaxslarning birlamchi tili sifatida egallanadi, keyinchalik jamoa, elat va millatning umumiy tiliga aylanadi, doimiy foydalanadigan tili bo‘ladi, jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar shu til umumiyliги asosida bitta hamjamiyatda birlashadi. Shu ma’noda turli guruhlar va jamiyatning ona tiliga ta’siri ham dastlab alohida shaxslardan boshlanadi hamda jamiyatning yaxlit ta’siri sifatida yuzaga chiqadi. Ona tiliga ta’sirlarning individual ko‘rinishda emas, yalpi bir tarzda amalga oshishi



ayrim olimlar tomonidan tilning yoki undagi o‘zgarishlarning obyektiv amalga oshishi haqida fikr yuritishlariga ham sabab bo‘lgan. Tilning obyektiv ravishda – kishi ixtiyoridan tashqari bir holatda shakllanishidek mulohazalardan hargiz “til jamiyatga bog‘liq emas ekan-da” tarzidagi xulosa kelib chiqmasligi (sistem-struktur tilshunoslikdagi kabi baholanmasligi) kerak. Y.Vaysgerber juda to‘g‘ri qayd qilganidek, lisoniy hamjamiyat o‘zining asosiy tili (ya‘ni ona tili)ni ham umumiy ijtimoiy mulk sifatida olib yuradi, ham shu umumiy tilga bog‘lanib qoladi [12; 82]. Afsuski, tilshunoslikning turli davrlarida tilni quruq ramzlar, belgilar majmuyi deb biluvchilar ko‘p bo‘lgan. Masalan, A.Nering tilni tirik, jamiyat ta‘siriga tushmaydigan hodisa hisoblagan va bugun birmuncha g‘alat qabul qilinadigan gapni aytgan: “Til grammatikachilarning xizmati bilangina yashab turgan, leksik va grammatik kompetensiyalar bazo‘r kunini o‘tkazadigan o‘lik belgilar yig‘indisidan boshqa narsa emas” [12; 82].

Amerikalik tilshunos B.Uorf milliy tafakkur va grammatikaning bog‘liqligi haqida fikr yuritar ekan, ona tilining shaxs aqliy-ruhiy dunyosidagi o‘rnini alohida ta‘kidlaydi: “...har qanday til tizimining asosi (boshqacha aytganda, grammatikasi) shunchaki fikrlarni tasvirlash emas. Aksincha, grammatikaning o‘zi tafakkurni shakllantiradi, shaxs aqliy faoliyati uchun dastur va qo‘llanma bo‘ladi, uning taassurotlarini tahlil qilish va sintez qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Fikrlarning shakllanishi tamomila mustaqil jarayon emas, balki muayyan til grammatikasining bir qismi. Biz tabiatni ona tilimiz taklif qilgan yo‘nalish bo‘yicha bo‘laklaymiz, hodisalar olamidagi ayrim kategoriya va tiplarni umuman ajratmaymiz, chunki ular (bu kategoriyalar va tiplar) o‘z-o‘zidan ma‘lum; aksincha, dunyo bizning oldimizda bo‘lishi kerak bo‘lgan

taassurotlarning kaleydoskopik oqimi sifatida paydo bo‘ladi [13; 209-210].

Shu ma‘noda o‘zbek hamjamiyatining ona tili uni asosiy til sifatida egallagan, asosiy axborot olish, ijod qilish va yetkazish tili sifatida egalik qiladiganlarning umumiy madaniy mulkidir. Bu til o‘zbeklar tomonidan shunchaki egallanmagan, balki aniq milliy-madaniy realiyalar bilan birgalikda o‘zlashtirilgan. Bu tilni ona tili hisoblaydiganlar o‘zlari xohlaganda ham o‘zbek tiliga tashqaridan egalik qilolmaydi, ya‘ni aniq milliy-madaniy realiyalarsiz munosabatda bo‘lolmaydi, balki shu tilning ichida yashab uni shakllantiradi, unga doimiy ta‘sir etib turadi. O‘zbek tili ham o‘zbek elining ona tili ekan, aytib o‘tilgan ta‘sirlardan tashqarida mavjud bo‘lolmaydi. Odamlar ona tiliga, ona tili odamlarga shu tarzda bog‘langan. Buning tasdig‘ini til amaliyotidagi har qanday jarayonlarda ko‘rish mumkin. Masalan, o‘zbek-lotin alifbosini takomillashtirish ishlari boshlanganda yozuv islohotiga jamiyat a‘zolari faol munosabatda bo‘ldilar. 2021-yilning 15-martida “O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali (<https://regulation.gov.uz/oz>)da e‘lon qilinganda 15 kun ichida 816 kishi qonun loyihasini to‘liq yoki qisman ma‘qullab, jiddiy yoki juz‘iy o‘zgartirish kiritilishini so‘rab fikr bildirdilar. O‘zbek tili va uning egalari bir-biriga bu tarz jips bog‘liq bo‘lmaganda, yozuv islohotida ijtimoiy ta‘sirlar sezilmas edi.

Xullas, ona tili bola ilk bor egallagan tildir. U jonli muloqotda, tabiiy bir sharoitda, dastlab og‘zaki tarzda o‘zlashtiriladi va shaxsning asosiy tiliga aylanadi. Davlatning tashkil topishi va milliy davlatchilikning shakllanishi, til egalarining bir



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

hududdan ikkinchi hududga ko‘chishi, maorif va ma‘rifatning tarqalishi, fan-texnikaning rivojlanishi, til egalari doirasining o‘zgarishi singari ijtimoiy omillar ona tili rivojini ta‘minlaydi [14; 26].

Tadqiqot yo‘nalishi hamda talabidan kelib chiqib, “birinchi til” tushunchasi, uning yondosh hodisalarga munosabati haqida ham fikr yuritiladi. Lingvistik adabiyotlarda birinchi til va ona tili atamaları sinonimik qo‘llab kelinadi. Birinchi til atamasida “shaxs birinchi o‘rgangan til” tushunchasi, ona tili atamasida ko‘proq “ajdodlari tili, shaxsga yaqin bo‘lganlarning tili” tushunchasi ta‘kid oladi. Birinchi til funksional jihatdan bilingvning birinchi o‘zlashtirgan, ilk lisoniy malakalarni egallagan tilidir. Ko‘pincha mutaxassislar “birinchi til” tushunchasini “ona tili” tushunchasidan farqlashda uning lisoniy malakalarni maxsus o‘zlashtirilishiga ko‘ra farqlaydilar va bunda ona tilining tabiiy bir tarzda kattalarga taqlid qilib egallanishiga diqqat qaratadilar.

Ingliz sotsiolingvistikasida tillarning o‘zlashtirilish, egallanish tartibidan kelib chiqib, birinchi til va undan keyin egallangan har qanday tilga nisbatan ikkinchi til atamaları qo‘llanadi. Muloqotda ko‘p yoki kam foydalanilishiga ko‘ra esa “asosiy til” va “yordamchi til” tushunchalari farqlanadi. Shaxs ko‘p foydalanadigan tilga nisbatan asosiy til, cheklangan qo‘llanishli yoki kam foydalaniladigan tilga nisbatan yordamchi til yoki qo‘shimcha til atamaları ishlatiladi. Asosiy til atamasida “funksional jihatdan birlamchi til” degan tushuncha, qo‘shimcha til atamasida “funksional jihatdan ikkilamchi til” degan tushuncha ustuvor.

A.Shovgenin birinchi tilning egallanishini, inson shaxsiyatini shakllantirishdagi ahamiyatini shunday tushuntiradi: Tilni o‘zlashtirish odatda umr bo‘yi stixiyali davom etadi. Inson bolaligidayoq uning shaxsiyatini aniq belgilab

beradigan birinchi tilning ta‘siri ostida bo‘ladi. Bu ta‘sir kuchi shunchalik kattaki, shaxs ona tilidan foydalanishni to‘xtatib, begona tildan foydalana boshlasa ham, ona tili orqali egallagan xulq-atvor modeli tubdan o‘zgarib ketmaydi, baribir, birinchi tilning ta‘siri sezilarli bo‘lib qolaveradi [15; 2].

Birinchi til tushunchasi jamiyat a‘zolarining turmushi va faoliyatida qaysi tildan foydalanish tarzlarini ko‘rsatishda tatbiq qilinadi.

A.Shovgenin birinchi til borasida yana bir qiziq qarashni ilgari suradi. Agar ikki til bir vaqtda o‘zlashtirilsa, unda ikkita birinchi til haqida gapirish mumkin. Masalan, ota-onaning birinchi tili boshqa-boshqa bo‘lsa va ularning har biri farzandi bilan muloqotda o‘zining birinchi tilida foydalansa, bolada bir paytning o‘zida ikki til baravar shakllanadi va ikkala til ham u uchun birinchi til bo‘ladi. Yoki bola ota-onasi bilan boshqa tilda, enagasi bilan boshqa tilda so‘zlashib voyaga yetganda ham ota-ona va enaga vositasida egallangan tillar uning birinchi tillari bo‘ladi. Masalan, eski Peterburgda nemis tili ko‘pchilikning oila va tanish-bilishlar bilan munosabatida so‘zlashadigan tili hisoblangan, ammo ularning ijtimoiy faoliyati rus tili bilan bog‘liq bo‘lgan. Tabiiyki, bunday oilalarda o‘sgan bola oilada bir tilda, ta‘lim dargohlarida boshqa tilda so‘zlashgan [15; 2].

Agar ikki til birin-ketin egallansa, keyingi tilni o‘zlashtirish ikkinchi tilni o‘zlashtirish sifatida belgilanadi. Bundan tashqari, ikkinchi tilni hali birinchi til puxta egallanmay o‘rganila boshlashi mumkin. Ayni holatda ikkinchi tilni o‘rganishga qachondan kirishilgani muhim o‘rin tutadi. Bola ikkinchi tilni egallashga balog‘atga yetmay kirishsa, jarayon birinchi tilni o‘zlashtirish kabi tabiiy kechadi. Ikkinchi til bola balog‘atga yetgandan so‘ng (12 yoki 13 yoshdan keyin) boshlansa, jarayon ona tili ko‘magida kechadi. Shundan kelib chiqib, biz balog‘atga yetgandan



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

keyin o‘zlashtirilgan tilni ona tili bo‘lmagan til deb tushunamiz. Bundan tashqari, ona tili bo‘lmagan til, qaysi yoshda egallanganligidan qat’i nazar, har doim ikkinchi til bo‘ladi [15; 2].

Birinchi til so‘zlovchining lingvistik kompetensiya jihatidan eng yaxshi egallagan tili hisoblanishi, ona tili so‘zlovchining o‘sha tilga alohida munosabati yoki milliy madaniyatining alohida ko‘rinishi ekanligi bilan tavsiflanadi [15; 2]. Masalan, Kanadada yashovchi o‘zbeklar uchun birinchi til vazifasini hududga qarab yo ingliz tili, yo fransuz tili bajaradi, ular asosiy muloqot vositasi sifatida o‘sha tillarni tushunadilar, shu tillar ular uchun birlamchi axborot olish va yetkazish vositasiga aylanib bo‘lgan, ona tili sifatida esa o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtdagi tilni biladilar.

Ona tili va birinchi til haqidagi mulohazalar mantiqan etnik til masalasiga ham to‘xtalishni taqozo qiladi. Yuqorida ona tiliga berilgan tavsiflarda uni etnik tilga tenglashtirib qo‘yish holatlari uchrashi va “ona tili” tushunchasiga hamma holatlarda mos kelavermasligi aytiladi. Etnik til termini tilni egasining milliy mansubligiga ko‘ra ataydi va aksincha, asosiy yoki asosiy bo‘lmagan til ekanligi kabilar nazarda tutilmaydi. Etnik til atamasi tushunchani shaxsning ona tilimi yoki birinchi tilmi ekanligi jihatidan ta’kidlamaydi, balki milliy mansublikka ishora qiladi. Demak, etnik til – shaxs mansub bo‘lgan el, elat va millatning tilidir. U etnomadaniy mahsulot, uni elatning o‘zi yaratadi va undan o‘zi kabilar faol foydalanadi. Elat o‘z etnik tilini shakllantirish va undan foydalanish jarayonida uni yangi etnomadaniy belgilar bilan boyitib boradi.

Etnik til – etnik o‘zlikni anglash, etnik o‘zlikni ta’minlashning zaruriy shartlaridan biri. Ayni etnobilish jarayoni avvalo etnik jamoaning o‘ziga nom olishida – etnonim tanlashida ko‘rinadi. Masalan, o‘zbek elati o‘zbek etnonimi bilan birga shakllangan. Elat nomi bilan tilining nomi bir xil

ekanligi etnik o‘zlikni anglashning ijobiy kechganligi va bu bilan etnik o‘zlik saqlab qolinganligidandir. Etnik o‘zlikni anglash keyinchalik davlat nomining elat va uning tilining nomi bilan muvofiq bo‘lishida davom etadi va bu ham elat taraqqiyotidagi muhim bosqichlaridan biridir. O‘zbek tili – o‘zbek etnosi – O‘zbekiston Respublikasi; turk tili – turk elati – Turkiya Respublikasi tarzida. Elat o‘zining kimligini anglamaganda yoki etnomadaniy jarayonlar salbiy kechganda esa, elat nomi va tilining aynanligi ta’minlanmaydi. Buni boshqa elatlar tarixi misolida ko‘rsatish mumkin.

Elat vakillarining etnik tildan foydalanishi asnosida o‘zaro ichki bog‘liqlik shakllanadi. Bu bog‘liqlik kichik etnik jamoalarni bir til, bir madaniyat ostida birlashishidan boshlanib, katta millatni shakllantirish va keyin ham uni bir jamiyat sifatida tutib turishdek jarayonlarda davom etadi. Uzoq vaqt davomida shakllangan etnomadaniy an’ana hamda qadriyatlar tilda saqlanadi va til orqali kishilararo bog‘liqlik ta’minlanadi. Bunday tabiiy ta’sirlashuv jarayonlarida elat va til bir-biriga juda jips bog‘lanib qoladi, ya’ni birining mavjudligi ikkinchisining mavjudligini ta’minlaydi, birining inkor etilishi boshqasining rad etilishiga olib keladi. Etnik tilini unutgan kishining qavmidan ajralib qolishi, ijtimoiy begonalashuvining sabablaridan biri shundandir. Kichik qavmlarda bunday begonalashuv juda aniq seziladi. Bu toifa haqida R.Hamzatov shunday yozadi: Dog‘istonlik yozuvchilar o‘nta tilda asar yozib, to‘qqizta tilda nashr etishadi. O‘ninchi tilda yozadiganlar nima qilishadi? Bu qanday til bo‘ldi? – deb so‘rarsiz. O‘ninchi tilda asar yozuvchilar o‘z ona tilini unutgan, ammo boshqa xalqning tilini hali o‘rganmagan yozuvchilar. Ular arosatda qolgan yozuvchilar (“Dog‘istonim” kitobidan). Demak, elat aqliy-ruhiy dunyosi bilan uning tili o‘rtasida doimiy ta’sirlashuv jarayonlari amal



qiladi va bunday ta'sirlashuvlar har ikkisinin shakliy-mazmuniy tomonida o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

E.Sepir ham etnik tilning ahamiyatini urg'ulaydi: odamlar nafaqat moddiy, ijtimoiy dunyoda yashaydilar, balki o'zlari yashaydigan jamiyat so'zlashadigan til hukmronligi ostida ham bo'ladilar. Inson tashqi olamni til yordamisiz anglashi mumkin yoki til tafakkur va muloqotning muayyan muammolarini hal qilishda tasodifiy vosita xolos, tarzidagi gaplar shunchaki xomxayol. Aslida real borliq muayyan ijtimoiy guruhning lisoniy odatlari asosiga qurilgan. Shu ma'noda ijtimoiy voqelikni bir xil ifodalaydigan ikki til yo'q. Turli jamiyatlar yashaydigan dunyolar, turli tillarda so'zlashadigan jamiyatlar yaratadigan

olamlar bir xil bir necha olam emas, balki bir necha tildagi har xil olamlardir. Biz olamni jamiyatimizda qoidalashgan lisoniy odatlarga muvofiq ko'ramiz, eshitamiz va idrok qilamiz [16; 261].

**Muhokama va xulosa.** Jahon fanida keyingi qirq-ellik yilning badalida etnomadaniy xususiyatlarni o'rganish dolzarblashmoqda. Tilshunoslikda ham etnolingvistik, lingvomadaniy mazmundagi izlanishlar ehtiyoj ortib bormoqda, etnik tilning elatni elatdan farqlovchi asosiy belgiligi anglab yetilmoqda. Globallashayotgan dunyo, kuchli etnik assimilyatsiya sharoitida qolgan ellarning birini boshqasidan tiligina ajratib turibdi, insonlar etnik tili orbitasidagina etnik xususiyatlarini saqlab turibd

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Махмудов Н. Тил даҳоси. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 2006 йил. 3-сон.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2003.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изохли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002.
4. Mahkamov N., Ermatov E. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Umumta'lim maktablarining ona tili darsliklari asosida. – Toshkent: Fan, 2013.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969.
7. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/mother-tongue?q=MOTHER+TONGUE>
8. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/first-language>
9. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/native-language>

10. [https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/native-language-tongue?q=ative+language#google\\_vignette](https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/native-language-tongue?q=ative+language#google_vignette)
11. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социоллингвистика. Учебник. – М., 2001.
12. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. Изд. 3-е. – М.: Книжный дом «Либроком», 2009.
13. Уорф Б.Л. Наука и языкознание / Языки как образ мира. – М.: Изд-во АСТ, 2003.
14. Чемоданов Н.С. Проблемы социальной лингвистики в современном языкознании // Новое в лингвистике. Социоллингвистика. Вып. VII. – М.: Прогресс, 1975.
15. Шовгенин А.Н. К вопросу разграничения понятий «родной язык», «первый язык», «второй язык», «неродной язык» в социоллингвистических исследованиях [10.18454/RULB.2023.44.19](https://doi.org/10.18454/RULB.2023.44.19) (Murojaat sanasi: 20.06.2024). – DOI: 10.18454/RULB.2023.44.19
16. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс Универс, 1993.